



ZAMONAVIY SPORT O'YINLARNING SOG'LOM AVLOD TARBIYASIDAGI O'RNI

**Mo'ydinov Iqboljon
Abduxamidovich**

Qo'qon davlat universiteti dotsent

**Abduxamidov Asadbek
Iqboljon o'g'li**

Qo'qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy sport va milliy o'yinlarning sog'lom avlod tarbiyasidagi o'rni o'rganilgan. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, empirik va sotsiologik metodlar qo'llanildi. So'rovnomalar natijasida sport va milliy o'yinlarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'siri aniqlandi. Milliy o'yinlar yoshlar orasida vatanparvarlik va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qilishi isbotlandi.

Kalit so'zlar Sport, milliy o'yinlar, sog'lom avlod, jismoniy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, sotsiologik tahlil, ijtimoiy rivojlanish, ruhiy barqarorlik, ta'lim tizimi, an'anaviy o'yinlar, innovatsion metodlar, jismoniy faollik, madaniy meros, vatanparvarlik, sog'lom turmush tarzi.

Sog'lom avlod – har qanday jamiyatning kelajagini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Jismonan baquvvat, ma'nan yetuk va ruhiy jihatdan barqaror yoshlarni tarbiyalash uchun sport muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy sport turlari va milliy o'yinlar yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda, ularning jismoniy rivojlanishida, irodaviy sifatlarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Sport insonni nafaqat chiniqtiradi, balki uning xarakterini shakllantirib, mehnatsevarlik, matonat, jamoaviylik va intizom kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Milliy o'yinlar esa ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan qadriyatlarni yosh avlodga singdirishda, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, sport va milliy o'yinlarning yoshlar hayotidagi o'rni va ahamiyatini chuqur anglash hamda ularni keng targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasida qabul qilingan farmon va qarorlar mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport infratuzilmasini rivojlantirish va xalqaro maydonda yuksak natijalarga erishish kabi maqsadlarga qaratilgan. Ushbu hujjatlar sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash, boshqaruv tizimini takomillashtirish va aholining barcha qatlamlarini sportga jalb etishni ko'zda tutadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon 2018-yil 5-martdagi jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025-

yilgacha asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi farmoni 2020-yil 24-yanvar farmon va qarorlar orqali O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash va xalqaro maydonda yuksak natijalarga erishish uchun mustahkam huquqiy va tashkiliy asos hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot doirasida zamonaviy sport turlari va milliy o‘yinlarning sog‘lom avlod tarbiyasidagi o‘rnini o‘rganish uchun turli ilmiy manbalar va adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, jismoniy tarbiya, sport psixologiyasi, pedagogika hamda xalq an‘analari bilan bog‘liq ilmiy maqolalar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar va statistik ma‘lumotlar asosida chuqur tahlil o‘tkazildi. Adabiyotlar tahlili jarayonida sport va milliy o‘yinlarning bolalar va o‘smirlar jismoniy rivojlanishiga, ijtimoiy faolligiga, ruhiy barqarorligiga ta‘sirini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratildi. Turli mamlakatlarning tajribasi, jumladan, rivojlangan davlatlarda sportni yosh avlod tarbiyasida qo‘llash amaliyoti ham ko‘rib chiqildi. Tadqiqot metodlari quyidagilarni o‘z ichiga oldi: **Adabiy manbalarni o‘rganish** – sport va milliy o‘yinlarning sog‘lom turmush tarziga ta‘siri bo‘yicha ilmiy maqolalar va tadqiqotlar tahlili. **Metodlar** – sport mashg‘ulotlari va milliy o‘yinlarning bolalar jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ta‘sirini baholash uchun kuzatuv va suhbatlar o‘tkazildi. **Eksperimental tadqiqot** – turli yoshdagi bolalar va o‘smirlar orasida sport mashg‘ulotlari va milliy o‘yinlarning ta‘sirini o‘rganish maqsadida tajribaviy ishlar olib borildi. **So‘rov va test metodlari** – o‘quvchilar va sportchilar orasida so‘rovnomalar o‘tkazilib, ularning sport va milliy o‘yinlarga bo‘lgan munosabati hamda foydali jihatlari tahlil qilindi. **Statistik tahlil** – tadqiqot davomida yig‘ilgan ma‘lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, ularning ilmiy asoslanganligi ta‘minlandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, sport va milliy o‘yinlar nafaqat jismoniy tarbiyaning muhim vositasi, balki madaniy merosni saqlash va yosh avlodni ijtimoiy jihatdan shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan usullar ushbu mavzuning dolzarbligini ochib berishga hamda sportning sog‘lom avlod tarbiyasidagi o‘rnini chuqur tahlil qilishga imkon yaratdi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, sport va milliy o‘yinlar yoshlar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. So‘rovda turli yoshdagi 100 nafar o‘quvchi va o‘smir ishtirok etdi. Ularning 55% sportning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlagan bo‘lsa, 20% milliy o‘yinlarni yosh avlod tarbiyasida muhim omil deb hisoblaydi. Shu bilan birga, 25% respondentlar zamonaviy sport turlari va milliy o‘yinlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi ta‘lim jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini qayd etgan. Shuningdek, ota-onalar orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, 68% ota-onalar farzandlarining sport bilan shug‘ullanishini qo‘llab-quvvatlashini bildirgan. Ularning fikricha, sport va milliy o‘yinlar farzandlarining jismoniy sog‘lomligi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi bolalar va o‘smirlar orasida ijtimoiy faollik, o‘ziga bo‘lgan ishonch va intizom darajasi sezilarli darajada yuqori. Bundan tashqari, milliy o‘yinlarni o‘rgangan yoshlarning o‘z an‘analariga nisbatan hurmati ortishi kuzatildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sport va milliy o‘yinlar yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta‘lim muassasalarida ularni yanada rivojlantirish va targ‘ib qilish zarur. Kelgusida ushbu yo‘nalishda chuqurroq

tadqiqotlar o'tkazish va milliy o'yinlarni zamonaviy sport turlari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari. **"Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"** O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning **"Yangi O'zbekiston strategiyasi"** asari. – Toshkent, 2021.
3. G'afurov U., Mamajonov B. **"Sport pedagogikasi"**. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2017.
4. Vohidov I., Qosimov A. **"Ommaviy sport va milliy o'yinlar"**. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. Ashurov N. **"Bolalar sporti va sog'lom avlod tarbiyasi"**. – Toshkent: Sharq, 2018.